

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI YOSHLARDA MUSIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.

Abilov Muslim Normuxammadovich,
JDPI Musiqiy talim kafedراسi mudiri,
katta o'qituvchi.

Annotatsiya: Ushbu maqola uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi yoshlarda musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik muammolarini amalga oshirish sifatlariga bag'ishlangan.

Tayanch iboralar: Uzluksiz ta'lim, tafakkur, shaxs, pedagog, mustaqillik, ma'naviyat, omil, talim, tarbiya, tizim, shakllantirish, zaruriyat, mustaqil talim, kuzatuvchanlik, qobiliyat, aqliy tarbiya, musiqiy qobiliyat, ko'nikma, faylasuf, sotsiolog, fiziolog, psixolog musiqashunos, diqqat.

Barkamol shaxs va malakali kadrlarga bo'lgan ijtimoiy zaruriyatning qaror topishi jamiyatda takomillashgan uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishga imkon berdi. Mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilayotganligi bejizga emas. I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida qayd etilganidek, ta'lim-tarbiya "xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir"¹. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviyat tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta'lim-tarbiya borasida yaratilayotgan shart-sharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitlarining yaxshilanishi, umuman olganda erishilgan moddiy va ma'naviy salohiyat erkinligi mamlakat mustaqilligining tuhfasini bo'lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e'tiqod va so'z erkinligi, diniy bag'rikenglik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarining hurmat qilinishi hamda qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda bularni xuquqiy asoslarini yaratilishi o'quvchi-yoshlarni mustaqillik, uning mazmun mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini ob'ektiv baholashga o'rgatish yo'nalishida o'ziga xos vazifalar

¹ И.А.Каримов "Юксак маънавият – енгилмас куч"-Т. 2008й.

yuklaydi. Bular o'z navbatida uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim - tarbiya jarayonlarida aks ettirish, yani o'quvchi - yoshlarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ko'proq erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning sub'ektivligini oshirish, mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil olgan ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ijodiy tafakkurini tahlil qilish eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zaruriyati belgilandi. Bugungi kundagi yangilangan ta'lim mazmuni, hamda mavjud talablarga ko'ra o'quvchi – yoshlarni musiqiy tafakkurini shakllantirish dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi. Chunki o'quvchi – yoshlarning ta'lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, mavjud vazifalarni to'g'ri baholash, pedagogik munosabatlar jarayonida o'quvchi-yoshlarning yoshi psixologik va shaxsiy xususiyatlariga muvofiq ish ko'rish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning oldini olish, istiqbolni bashoratlash kabi layoqatlarga ega bo'lishlari komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishning muhim omillaridan biri sanaladi. Bu kabi holatlarning mavjudligi esa ularning o'ziga xos musiqiy tafakkurga ega bo'lishlarini taqozo etadi. Musiqiy tafakkurni shakllantirish bugungi kunda faylasuf, sotsiolog, fiziolog, psixolog musiqashunos olimlarning diqqat markazida ekanligi asoslangan. Shu munosabat bilan hamdo'stlik respublikalari olimlarining musiqiy tafakkur haqidagi qarashlari o'rganilgan va tahlil etilgan. Tafakkur – bu farqlash. Insonning o'ylash, muhokama qilish qobiliyatlari, haqiqat haqidagi tushunchalarini, qarashlari, tasavvurlari kabilarni aniq tasavvur etish jarayonlaridir. Tafakkur bu dunyoni inson tomonidan his etish xususiyatlaridir, u yoki bu bilimlarni egallash asosida shakllanadi. Egallangan bilimlar inson uchun turli xil axborotlarni o'zining rejalarini va ijro etiladigan dasturlarini muvaffaqiyatli qo'llash ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Tafakkur jarayoni hayotiy vazifalarni hal etishda dunyoni o'zgartirishda inson faoliyatida to'g'ri qarorlar qabul qilishda muhim o'rin tutadi. Tafakkurni shakllantirish xususiyatlari: kuzatuvchanlik, qobiliyatlar, aqliy tarbiya, musiqiy qobiliyatlar ko'nikmalar kabilardir.

O‘quvchi-yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda ularning muayyan darajada pedagogik qobiliyatlarga ega bo‘lishlari muhimdir. Zero musiqiy qobiliyatlar ma’lum darajada kasbiy faoliyat mohiyatini anglash uni to‘g‘ri tashkil etish, zimmadagi mas’uliyatni his etishga imkon berishi bilan birga zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni nisbatan oson o‘zlashtirishga yordam beradi.

Musiqiy tafakkur o‘z navbatida o‘quvchi-yoshlarda pedagogik mahorat va madaniy unsur (element)larini hosil bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Falsafiy, psixologik va pedagogik manbalarda tafakkur tushunchasiga berilgan ta’riflarga tayangan holda “Pedagogik tafakkur” – maxsus bilimlarga ega pedagogning, pedagogik jarayonlar mohiyatini idrok etishi hamda ta’lim – tarbiya jarayonini samarali tashkil etish qonuniyatlarini bilishi, o‘quvchi shaxsiga to‘g‘ri yondasha olishi, uning manfaatlari uchun qarorlar qabul qilishda ko‘zga tashlanuvchi yuqori darajadagi aqliy faoliyati o‘quvchi - yoshlarni musiqiy tafakkurini shakllantirishda ular tomonidan maxsus fanlar asoslarini chuqur o‘zlashtirish, pedagogik amaliyot jarayonida faol ishtirok etish, muntazam ravishda ijodiy izlanishda bo‘lish, mustaqil o‘qib – o‘rganish alohida ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonini ongli ravishda olib borilishi inson shakllanishidagi asosiy vositadir. Bu esa o‘z navbatida bilim oluvchi shaxsini bilim – malaka, savodxonligi, madaniyati, ma’naviy axloqiy normaning unda qanday shakllanganligi kabi jarayonlarga bog‘liq holatdir.

Inson shaxsini har tomonlama ijobiy shakllanishiga erishish masalasi har bir davrning o‘ziga xos ishi bo‘lib kelgan. Shu sababli ham xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlari asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiy, fan-texnika va texnologiyaning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini yaratish O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonunida belgilangan.

Jamiyat rivojlanishini takomillashtirish uchun ijodiy fazilatlarga ega bo‘lgan chuqur ijodiy fikrlaydigan, qobilyatli, yuksak madaniyatli, iqtidorli o‘quvchi-yoshlardan mutaxasislarni yetishtirishga qaratilgan izchil va mazmuniy ishni yo‘lga qo‘yish, har bir masalani ijodiy fikrlay oladigan o‘quvchi – yoshlarni,

pedagoglarning samarali ishlarini muvofiqlashtirib olib borishni taqozo etadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, musiqiy ijodiy tafakkurning tahlili va uzluksiz ta'lim tizimi buyicha jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va umumbashariy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda ishlay olish uchun to'g'ri yo'l tanlagan yuqori saviyadagi bilim mahoratiga ega bo'lgan, istiqloq vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Iste'dodli o'quvchi yoshlarni umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobitqadam faoliyatini amalga oshirishda o'rta maktab va akademik litseylarning o'quvchilariga birinchi navbatda, iqtidorli yuksak iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalarini va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish o'zlaridagi noyob iste'dodlarin i ro'yobga chiqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilishi lozim.

Shaxsni bilimdon ya'ni ijodiy fikrlovchiga aylantirib ilm olishga o'rgatish bilan birga unda vatanparvarlik, kamtarlik, baynalminallik hislatlariga ega bo'lgan inson qilib shakllantirish zarur.

Bugungi kunda respublikamizning san'ati, ilm-fan ishlab chiqarish jarayoni, fuqorolarimizning mehnatga munosabati, ahlining turmush darajasining yuksalib borishi va davlatni o'sib ulg'ayishida aqlli, ijodiy fikrlaydigan va yuqoridagi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan mutaxassislar zarur bo'lmoqda. Buning uchun esa yuqori darajada ijodiy fikrlash qobilyatiga ega bo'lgan yoshlarni tezroq aniqlash va ular bilan muntazam shug'ullanish zarurati tug'ilmoqda.

Ushbu jarayonlarni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish, ularni pedagogik-psixologik asoslarini o'rganish bugungi kunning talabi bo'lib turibdi. Buning uchun albatta halqning zamon talabi darajasidagi qadriyatlar xazinasiga qo'shadigan estetik tarbiya vositalari asosidagi musiqiy bilimlarga ega bo'lgan mutaxasislarni tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir. Ma'lumotli, madaniyatli, bilimdon mutaxasislarni tayyorlashda samarali pedagogik mahorat

kerak bo‘ladi. Bu o‘rinda har tomonlama musiqiy tafakkuri keng, ijodiy fikrlashga ega bo‘lgan mutaxassislar zarur. Shu o‘rinda mutaxassislar sinfi yetarli bilimli bo‘lishi bilan birga yuqori ma’naviyat egasi bo‘lishlari ham zarur. Bu esa jamiyat rivoji uchun juda katta ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarda bu jarayon quyidagi asoslar orqali amalga oshiriladi:

1-jadval.

.	Dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishda munozara jarayonini vujudga keltirish.
.	Polilog-guruh (sinf) ichida kichik guruhlariga bo‘linib materialni muhokama etish.
.	Nazorat qilish va baholash asosida ijodiy fikrlashni amalga oshirish yo‘li bilan materialni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini vujudga keltirish.

Jamoa bo‘lib ishlashda o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor berish lozim:

2-jadval.

- Dars materialini tayyorlashda bahs munozaraga sabab bo‘luvchi jarayonni vujudga keltirishni hisobga olish.
- Maqsad asosida ijodiy fikrlashni vujudga kelishini ta’minlash, musiqiy tafakkurini kengaytirish.
- Materialni o‘zlashtirishda har bir o‘quvchi boshqalar fikrini hurmat qila olishi xususiyatini vujudga keltirish.

Shuni hisobga olgan holda, o‘quvchi-yoshlarning muammo xarakteridagi nazariy materialni tahlil qilishga, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga va amaliy masalalarni ijodiy fikrlash asosida to‘la yechishga tayyor bo‘lmasa u holda sodda yechim yo‘lini topishi muhim ahamiyatga molik bo‘ladi. Bunday ko‘nikmalar tarixiy asosda asta-sekin shakllanadi. Guruh asosida o‘quvchi-yoshlarni ijodiy fikrlashlarini vujudga keltirish ko‘proq munozara asosida amalga oshiriladi va guruh asosida ijodiy fikrlashni tashkil etish, bilimni sinab ko‘rish, qiziqishlarni

aniqlash, ijod tomon yo'naltirish jarayonlarini samarali ravishda ishlatish mumkin bo'ladi.

Masalani yechish talablari asosida bu masalaning yechimini aniqlash bo'yicha quyidagi kabi vazifalar turganligini ko'rish mumkin:

- o'quvchi-yoshlarning har bir dars materialini o'zlashtirishda psixologik-pedagogik tayyorgarligini oshirish.

- o'quvchi-yoshlar diqqatini ijodiy fikrlashga yo'naltirish yo'llarini aniqlash va ulardan to'g'ri foydalanishning ilmiy pedagogik asoslarini yaratish.

- O'quvchi-yoshlarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish va shu kabilar.

Bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, o'quvchi-yoshlarning 63% faqatgina dars materialini yodlash, ijodiy fikrlash bilan (alohida tizimli asosda) shug'ullanmasligi faqat dars materialini mustahkamlash jarayonida materialni fikrlab qaytarishi nazarda tutilgan bo'lishi, guruh asosida ijodiy fikrlashga 78% o'quvchi-yoshlarni tayyor emasliklari, materialni boshqa fanlar, hayotiy jarayonlar bilan bog'lab o'rganish asosida ijodiy fikrlashga 83% o'quvchi-yoshlarni umuman tayyor emasliklari aniqlanadi.

O'quvchi-yoshlarning ma'ruza matnlari tekshirilganda ularning fikrlashiga yo'naltirish va shu asosda bilimni mustahkamlashga qaratilgan materiallar 3-7% dan ortmasligi aniqlandi (ijodiy fikrlashni vujudga keltirish faqatgina ma'ruza matnlarini mustahkamlash qismidagina hisobga olinganligi asos qilib olindi).

Ijodiy izlanuvchi mutaxassis jamiyat uchun foyda keltiradi, buning uchun esa bo'lajak mutaxassisni o'quvchiligidan boshlab musiqiy tafakkurini rivojlantirish, ijodiy fikrlashga o'rgatish zarur, bunday yuqori malakali mutaxassislarning yetilishi zarur bo'lgan jarayon maktab partasidan boshlab yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat ega. O'quvchi-yoshlarga nima sababdan, qanday maqsadda bu jarayonni zarurligi tushuntirilishi lozim.

O'qish jarayonida o'quvchi-yoshlarni musiqiy tafakkurlarini rivojlanishi va o'rganilayotgan materialini faol o'zlashtirishlari uchun quyidagi asosda mashg'ulotlarni tuzish o'rinli bo'ladi.

.	Darsning kirish qismida ushbu dars jarayonida o‘quvchi-yoshlarni ijodiy fikrlashlarini vujudga keltirish uchun alohida material mushohadaga beriladi.
.	Darsni asosiy qismiga maxsus savollar kiritiladi.
.	Maxsus savollarga uzoq to‘xtalish tavsiya etilmaydi va maxsus savollarga tezda ijodiy fikrlar tomonidan beriladi, agar o‘quvchilar javob topa olishmasa o‘qituvchi darhol yo‘naltiruvchi savollar beradi. Agar bunda ham javob topa olmasa o‘qituvchi o‘zi javob beradi va qanday mulohazalar asosida javob topganligi aytiladi.
.	Material berib bo‘lingandan so‘ng dars materiali asosidagi savollar yoki anketalar beriladi. Bu o‘rinda ham o‘qituvchi dars materialidagi kichkina “NOU-XAU” sini toptiradi.

Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun biz quyidagi metodlardan foydalanish va quyidagi vazifalarni amalga oshirishni oldimizga maqsad qilib qo‘ydik:

- o‘rganilayotgan dars materialini biroz murakkablashtirish;
- o‘quv materialining ba’zi bir zaruriy joylariga o‘quvchi-yoshlar diqqatini ko‘proq qaratish va shuningdek tartib bo‘yicha materiallar kiritish;
- o‘quvchi-yoshlar ijodiy musiqiy tafakkurini namoyon qilishi uchun anketa usulidan foydalanish;
- berilgan tayanch tushunchalarni kim qanday tushungani asosida bahs munozara uyushtirish;
- yakuniy natija asosida fikr almashtirish jarayonini o‘tkazish;
- sinfdan tashqari har xil tadbirlar, viktorinalar, o‘yinlar o‘tkazish va shu kabilar.

Ko‘rsatilgan jarayonlar asosida o‘quvchi-yoshlarni o‘qitish uchun mashg‘ulotlarni quyidagi asosda uyushtirish o‘rinli bo‘ladi:

- Dars materialini anglash, yaxshi o'zlashtirishga kirishuvchi o'quvchi-yoshlar bilan muntazam shug'ullanish (ular bilan muntazam iloji boricha alohida ishlab borish kerak);

- Izlanuvchan, ijodkor, yangilikka intiluvchi o'quvchi-yoshlar (bularni "aqliy" o'quvchilar deb o'z holiga tashlab qo'ymaslik, aksincha ularni so'z bilan bo'lsada rag'batlantirib yanada ko'proq fan qirralariga qiziqtirib borish zarur) bilan alohida mashg'ulotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

- Dars materiallarini o'zlashtirishda ijodiy fikrlashga urinadigan o'quvchi-yoshlar bilan ko'proq dars materiallarini ilm manbaalari asosidagi ma'lumotlar bilan bog'lab tushuntirish ishlarini izchillik bilan olib borish.

- Dars materiallarini tushunmaydigan va tushunishga urinmaydiganlar ham bo'ladi. Bundaylar bilan ishlashni o'qituvchining o'z ixtiyoriga qo'yish kerak. Chunki o'qituvchini ishlash vaqti cheksiz emas, imkoniyatlarini ham ma'lum chegarasi mavjud. Bu holda faqatgina o'qituvchining pedagogik faoliyatiga tayanish lozim bo'ladi.

Musiqqa darsini o'qitishga tizimli yondashuv asosida ayniqsa 4-7 -sinflarda o'qitish uchun berilgan badiiy asarlar o'quvchi-yoshlarning rivojlanishi borasida qo'llaniladigan metodik tavsiyalar qayta ishlab chiqilishi lozim bo'ladi. Musiqiy asarlar, mashqlar, ko'rgazmali mashg'ulotlar, yozma ishlar, sinfdan tashqari ishlar, tadbirlar va shu kabi aniq bajariladigan ishlar ma'lum dastur asosida olib borilishi kerak.

Yuqoridagilarni amalga oshirishda o'quvchi-yoshlar ijodini vujudga keltirish uchun quyidagi ishlarni bajarishni tavsiya etamiz:

- Bahslar, mazmunli munozaralar uyushtirish.
- Muammoli ma'ruzalar o'qish;
- yozma ijodiy ishlar o'tkazish;
- darslarni har-xil o'yinlar asosida tashkil etish;
- stendlar yordamida mashg'ulotlar o'tkazish;
- o'quv mashg'ulot ishlarini tashkillashda ko'proq o'quvchi-yoshlar imkoniyatlaridan foydalanish;

- kompyuter yordamida ko‘plab mashg‘ulotlar uyushtirish;
- (ayniqsa ularni musiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun), masofaviy o‘qishlarni tashkil etish, pedagogik texnologiyalardan foydalanib;
- Keys metodidan samarali dars o‘tish uslubidan ko‘proq foydalanish ishlarini yo‘lga qo‘yish;
- ko‘rgazmali mashg‘ulotlar uyushtirish;
- suhbatlar tashkil etish;
- seminar mashg‘ulotlarini uyushtirib borish.

O‘quvchi-yoshlarni musiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi yuzaga keladigan ziddiyatlarni mavjud ekanligiga ham pedagogik nuqtai nazardan e‘tibor berilishi lozim. Har bir o‘quvchi - yoshga individual yondashgan holda quyidagilarni ham e‘tibordan chetda qoldirmaslik muhim ahamiyatga molik bo‘ladi:

- O‘quvchi - yoshlar bilimining bir xilda emasligi;
- o‘quvchi-yoshlarning qiziquvchanligini har xilligi;
- o‘quvchi-yoshlar xarakterining xilma xilligi;
- o‘quvchi-yoshlarning tafovutli tortinchoqligini bo‘lishi;
- dars materialini o‘quvchi-yoshlarning har xil o‘zlashtirishlari va boshqalar.

Yosh avlodni yetuk kadrlar qilib tarbiyalash masalasi murakkab masala bo‘lib kasbiy bilim va malakalarni keskin rivojlantirmay turib kelajakda katta muvaffaqiyatga etishib bo‘lmaydi. Buning uchun o‘quvchi yoshlar oldidagi ulkan vazifalardan biri bu ularning: ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy sohalarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishni taqozo etadi.

Shuni inobatga olib bugungi kunda xorijiy mamlakatlarning erishgan tajribalarini, o‘zimizning xususiyatlarimiz, moddiy va ma‘naviy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda o‘rganish orqali, madaniy va ma‘rifiy boyliklarimizni bilim oluvchilarga yetkazish zarurligi ko‘rsatilgan. Bu esa bilim oluvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlashlarini qay darajada o‘stirishimizga bog‘liq bo‘lib muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”-T. 2008y
2. О психологии музыкального восприятия - Ye. Nazaykinskiy. «Музыка» Moskva 1972
3. Musiqa psixologiyasi (ma’ruzalar kursi): O‘quv qo‘llanma / Tuzuvchi-muallif R.G‘.Qodirov. - T.: Musiqa, 2005.
4. Музыкальная психология – V.I.Petrushin, Moskva 2008
5. Психология музыкальных способностей. В.М.Теплов Moskva 1949
6. Психология дирижирования. Yerjemskiy G. L. M.: Музыка, 1988.
7. Prakticheskaya psixologiya dlya muzykantov - O.A. Luchinina, Ye.S. Vinokurova. Astraxan: Izdatelstvo Astraxanskoy gosudarstvennoy konservatorii 2008 – 144s.
8. Музыкальная психология - O.A. Luchinina. Astraxan: 2011
9. Nazaykinskiy Ye. V. Logika muzikalnoy kompozitsii. — M.: Музыка, 1982. — 319 s